

KESIM VA UNING IFODALANISHI

Nu`monova Muharramoy Mirzohid qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20116620>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi gapning asosiy markaziy va yetakchi bo'lagi hisoblangan kesim va uning ifodalaniş usullari, gap qurilishidagi o'rni tahlil qilinadi. Tezisdagi fe'l-kesim va ot-kesimlarning strukturaviy tuzilishi, ularning predikativlikni shakllantirishdagi ahamiyati hamda morfologik vositalarning kesim hosil qilishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, to'liqsiz fe'llar va bog'lamalarning kesim qurilishidagi roli hamda frazeologizmlarning kesim vazifasida kelish holatlari misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kesim, predikativlik, fe'l-kesim, ot-kesim, bog'lama, to'liqsiz fe'l, morfologik ko'rsatkich, sintaktik aloqa, strukturaviy tuzilishi, gap bo'lagi, frazeologiya.

Kesim — gapning bosh bo'laklaridan biri. Ega bilan ifodalangan shaxs, predmet va xodisaning umumiy belgisini bildiradi. Kesim gapni uyushtiruvchi markaz bo'lib, predikativlikning belgisini ko'rsatadi. O'ziga bog'lanib kelgan so'zlarga nisbatan hokim hisoblanadi. Kesim barcha mustaqil so'z turkumlari bilan ifodalanadi. Qaysi so'z turkumi bilan ifodalanişiga ko'ra ikki turga bo'linadi.

1.Ot kesim.

2. Fe'l kesim.

Fe'l kesim sof fel va ba'zan ravishdosh bilan ifodalanadi.

Misol: Daraxtda qushlar sayraydi.

Fe'l kesim ba'zan frazeologik ibora bilan ham ifodalanadi.

Misol : Uning gaplarini eshitib, hamma hayratdan yoqa ushladi.

Fe'ldan boshqa so'z turkumlari hamda fe'lning harakati nomi shakli bilan ifodalangan kesim ot kesim deyiladi. Ot kesim vazifasida asosan bosh kelishidagi ot, ba'zi hollarda esa kelishik qo'shimchalaridan o`rin- payt, jo`nlaish va chiqish kelishiklaridagi ot yoki ko`makchi bilan qo`llangan ot qo`llaniladi. Ot kesimlar quyidagi so`zlar bilan ifodalanadi:

Ot bilan :O`zbekistonning eng katta boyligi – uning mard va oliyjanob xalqi.

Sifat bilan :Rahima xolaning xarakteri juda og`ir.

Son bilan : Bizning guruhimizdagi talabalar soni – yigirma beshta.

Olmosh bilan : Butun sinfnining mas`uliyati faqat sizda.

Ravish bilan : Biz qizlar bilan uchrashmoqchi bo`lgan joy bu yerdan ancha uzoq.

Taqlid so`z bilan:Mna xat bilan ishlar gumdir (X.X.Niyoziy).

Modal so`z bilan : Bunday vaziyatda Nigorani tushunish dugonasi uchun juda qiyin.

Izofali birikmalar bilan : Otalar so`zi – aqlning ko`zi (Maqol).

Bog'lanma. Kesimdan keyin kelib, kesimni grammatik jihatdan shakllantirish, uning semantikasini taraqqiy ettirishi, fikrni tugallash, shaxs- son, zamon kabi grammatik ma`nolarini ifodalash, kesimning ega bilan munosabatini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi vositalar bog'lama sanaladi. U quyidagicha ifodalanadi:

Edi, ekan, emish kabi to'liqsiz fe'llar bilan : Usta Azim sharqcha binolar ko`rishda mashhur edi (Oybek).

Predikativ – modal so'zlar (kerak, zarur, shart, lozim,mumkin)bilan :Men ertaga qolib bo`lsa ham, loyihani muhokamaga tayyorlashim shart (A.Muxtor).

Ko`makchilar bilan : Baliqning tirikligi suv bilan, odaming tirikligi el bilan (Maqol).

Bor,yo`q, emas so`zlari bilan : Uch soatdan beri biron kimsa duch kelgani yo`q(A.Muxtor).

Sanaladi, hisoblanadi iborat so`zlari bilan :Korxonaning tarixi safarbarlikdan iborat.

Bog`lamalar tuzilish jihatdan so`z bog`lama va affiks bog`lamaga bo`linadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kesim gapning sintaktik yaxlitligini ta`minlovchi asosiy bo`lakdir. U nafaqat grammatik, balki mantiqiy tugallikni ham yuzaga chiqaradi. Kesimning ifodalanish imkoniyatlari kengligi o`zbek tilining boy va elastik grammatik qurilishga ega ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G`ulomov A., Asqarova M. "Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis". - Toshkent, "O`qituvchi", 1987.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. "O`zbek tilining nazariy grammatikasi". - Toshkent, 1995.
3. Sayfullayeva R. va boshqalar. "Hozirgi o`zbek adabiy tili". - Toshkent, 2009.